



HIGH OFFICE – FROM THE HISTORY OF RULERSHIP (ON THE EXAMPLE OF THE KHANATE OF KHIVA)

Dilfuza Egamqulovna Begaliyeva

Associate professor at Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

E-mail: begaliyeva_dilfuza@uznpu.uz

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khanate of Khiva, state administration, high office, “enthronement of the khan”, legitimacy, court, felt, jigha.

Received: 04.05.26

Accepted: 05.05.26

Published: 06.05.26

Abstract: This article examines the political and legal status of high-ranking officials and their role within the state administration system of the Khanate of Khiva, as well as provides a historical and theoretical analysis of the processes of political legitimacy. The study highlights the ceremony of “enthroning the khan,” which played an important role in the formation and consolidation of the khanate’s political system, its structural elements, and the functional significance of the symbolic attributes used in this process. In addition, the article analyzes the interrelation between court practices, political traditions, and mechanisms of state governance, as well as their role in ensuring the stability of the khanate’s political system. On the example of the Khanate of Khiva, traditional forms of power legitimization, the ideological content of political rituals, and their influence on public consciousness are revealed based on historical sources. This research contributes to a deeper understanding of the specific features of the state administration system of medieval Central Asia.

OLIIY MANSAB – HUKMDORLIK TARIXIDAN (XIVA XONLIGI MISOLIDA)

Dilfuza Egamqulovna Begaliyeva

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: begaliyeva_dilfuza@uznpu.uz

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Xiva xonligi, davlat boshqaruvi, oliy mansab, “xon koʻtarish”, legitimatsiya, saroy, kigiz, jigʻa.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligi davlat boshqaruvi tizimida oliy mansabdor shaxslarning oʻrni va siyosiy-huquqiy mavqei, shuningdek, hokimiyatning legitimatsiya jarayonlari tarixiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda xonlik siyosiy tizimida hokimiyatning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etgan “xon koʻtarish” marosimi, uning tarkibiy elementlari hamda ushbu jarayonda qoʻllanilgan ramziy atributlarning funksional vazifalari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada saroy amaliyoti, siyosiy anʼanalar va davlat boshqaruvi mexanizmlarining oʻzaro bogʻliqligi, ularning xonlik siyosiy tizimidagi barqarorlikni taʼminlashdagi roli tahlil qilinadi. Xiva xonligi misolida hokimiyat legitimatsiyasining anʼanaviy shakllari, siyosiy marosimlarning ideologik mazmuni hamda ularning jamiyat ongiga taʼsiri tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

ВЫСШАЯ ДОЛЖНОСТЬ - ИЗ ИСТОРИИ ПРАВЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА)

Дилфуза Эгамкуловна Бегалиева

Доцент Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами доктор философии (PhD) по историческим наукам

E-mail: begaliyeva.dilfuza@uznpu.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хивинское ханство, государственное управление, высшая должность, «возведение хана на престол», легитимация, двор, кигиз, джигга.

Аннотация: В данной статье рассматриваются политико-правовой статус высших должностных лиц и их место в системе государственного управления Хивинского ханства, а также историко-теоретически анализируются процессы легитимации власти. В рамках исследования научно освещаются церемония «возведения хана на престол», имевшая важное значение в формировании и укреплении политической системы ханства, её структурные элементы, а также функциональное значение символических атрибутов, используемых в данном процессе. Кроме того, в статье анализируется взаимосвязь дворцовой практики, политических традиций и

механизмов государственного управления, а также их роль в обеспечении стабильности политической системы ханства. На примере Хивинского ханства раскрываются традиционные формы легитимации власти, идеологическое содержание политических ритуалов и их влияние на общественное сознание на основе исторических источников. Данное исследование способствует более глубокому пониманию особенностей системы государственного управления средневековой Центральной Азии.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruv tizimining roli ortib borayotganligi, mamlakatimizda farovon jamiyatni barpo etish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari va boshqa qator omillar boshqaruvga oid an‘ana, marosimlar tarixini ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-sonli farmonida ko‘rsatilganidek, davlat fuqarolik xizmatiga eng munosib va qobiliyatli shaxslarni qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo‘llash belgilab qo‘yilgan [1]. Bu nafaqat an‘anaviy balki, ma‘lum bir tarixiy davrlarda mavjud bo‘lgan mansab-lavozimlar, ularni ishlash taktikasini ko‘rib chiqish, boshqa mamlakatlar tajribalarini o‘rganish, yangilanayotgan O‘zbekistonda boshqaruvga oid tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Dunyo miqyosida kechayotgan globallashtirish jarayonlari etnomadaniy xususiyatlar va milliy marosimlar, moddiy meros va madaniy meroslarni saqlash va ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasini nihoyatda dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda davlat boshqaruv tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavzusiga bag‘ishlangan mazkur maqola o‘zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar sharhi. Xiva xonligi davlat boshqaruvi tizimida oliy mansabdor shaxslarning o‘rni va siyosiy-huquqiy mavqei haqidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Milliy arxivi (keyingi o‘rinlarda – O‘z MA) ning I-125-fondi materiallarida, Markaziy Osiyo xonliklari jumladan Xiva xonligiga doir solnomalarda uchraydi. Shuningdek, mavzuga doir ma‘lumotlar O.Mutalov, D.Begaliyevalarning tadqiqoti, monografiya va bir qator maqolalarida yoritilgan

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida tadqiq etilib yozilgan.

Muhokama va natijalar. Qadimgi davrlardan boshlab, O‘rta Osiyoda markaziy hokimiyat legitimligini ta‘minlash va hukmdor mavqeyini mustahkamlashda “xon ko‘tarish” marosimining o‘rni o‘ziga xos bo‘lgan. Davlat boshlig‘i – xonning saylanishi, valiahd tayinlashning

rasmiylashtirilishi kabi “huquqiy odatlar” [2]. va ularning paydo bo‘lishi, ta’kidlanganidek, eng qadimgi davrga borib taqaladi. VI asrga oid xitoy manbalardagi ma’lumotlariga ko‘ra O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan Turk xoqonligida yirik amaldorlar taxt vorisini kigizga o‘tqazib, quyosh harakatiga monand ravishda to‘qqiz marta doira bo‘ylab aylantirganlar. Har bir aylanishda marosimda ishtirok etuvchilar xoqonga tazim qilganlar. Shundan so‘ng uni otga mindirib bo‘yni uzra ipak mato tashlab qattiq siqqanlaru darhol bo‘shatib, undan necha yil hukmdor bo‘lishi haqida so‘raganlar. Aftidan bu savol va u bilan bog‘liq tadbir hukmdorning qatilyigi, irodasi va jismoniy imkoniyatlarini sinash niyati bilan bog‘liq bo‘lgan [3].

Xiva xonligidagi hokimiyatni legitimlashtirish va hukmdor avlodining Chingizxonga borib tutashishi, chingiziylarning “Yaso” qonunlari [4] to‘plami asosida oliy hukmdorni rasman e’lon qilish hamda davlatni boshqaruvi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

“Xon ko‘tarish” marosimi mazmuniga ko‘ra, bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan hamda siyosiy va ijtimoiy ma’naviy hayotning turli jihatlarini ifodalovchi tartib qoidalar asosida o‘tkazilgan. Ularni bir necha bosqichga bo‘lgan holda ko‘rib chiqish mumkin. Yangi xoni oq kigizga solib olqishlash, kigizdagi xonni taxt ustiga o‘tkazish, kigizni kesib olish shular jumlasidandir. Oq kigizga solingan xonni balandga ko‘tarish chog‘ida kigiz ko‘taruvchilar “Ollohu akbar” deya ko‘tarishganligi ma’lumotda qayd etib o‘tiladi [5]. Bay’atlashish tugallangandan so‘ng xonni oq kigizning o‘rtasiga solib, to‘rt nafar kishi kigizning to‘rt burchagidan tutib, xonni bosh baravar osmonga uch marta baland ko‘tarib, “xon”, “xon”, “xon”, deya olqishlashgan [6]. Shundan keyin yangi xon haqiqiy hukmdor deb tan olingan. Bazinerning tasvirlashicha, Rahimquli sultonni “chodirga olib borib, kigiz ustiga o‘tqazishib, uch marta osmonga baland ko‘tarib xon, xon, xon, deb olqishlashgan [7].

Kigizdagi xonni taxt ustiga o‘tqazish marosimning navbatdagi amali bo‘lib, “xon ko‘tarish”ning tub mohiyatini ifodalagan. Shu o‘rinda, kigiz ko‘taruvchilarning ayrim hollarda qo‘pollik bilan harakat qilganlariga doir ma’lumotlar uchraydi. Xususan, Eron elchisi Rizoqulixon xonni kigizdan taxt ustiga o‘tqazish holatini tasvirlar ekan, “tashlayotganda shunday harakat qilishganki, bo‘lg‘usi xonning yertuban qulashi yo boshidagi telpagi tushib ketishi ham hech gap emas edi”, deb yozadi [8].

Kigizning kesib olinishi. Yangi hukmdorni taxt ustiga qo‘yishgandan so‘ng marosimning har bir ishtirokchisi xon ko‘tarilgan kigizning biron burchagidan pichoq bilan bir qarichdan kesib, uylariga olib ketishgan. Bu kigiz parchasi ularning dabdabali “xon ko‘tarish” marosimi ishtirokchisi bo‘lganining belgisi hisoblangan [7]. Ron Sela marosim ishtirokchilari tomonidan esdalik sifatida kigizning kesib olinish holatini o‘ziga xos “musobaqaga o‘xshatgan” [9]. Olim,

ushbu odatning Buxoro xonligida mavjud bo'lmaganligini qayd etar ekan, uning Xiva xonligiga, asosan, qozoqlardan kirib kelganligini ta'kidlaydi [9].

Tadqiqotchilar M.S.Andreyev va O.D.Chexovichlar ham Buxoro amirlarining oq kigizga o'tqazilganligini qayd etsalarda, ammo, aynan kigizning kesib olib ketilishi odati haqida ma'lumot bermaganlar [10]. Ushbu masalaga aniqlik kiritish uchun, birlamchi manbaga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, Hofiz Tanish Al-Buxoriyning qayd etishicha, valiahd "zam-zam" suvi bilan yuvilgan oq kigizda ko'tarilgan [11]. Ammo, muallif tomonidan kigizning kesib olib ketilishi haqidagi ma'lumot keltirilmagan.

Haqiqatdan, Qozoq xonligida o'tkazilgan tantanali marosimda kigizni ishtirokchilar tomonidan kesib olib ketish odati bo'lgan [12]. Hatto, xonning ustidagi kiyimini kesib olishga intilgan amaldorlar, xonga tegishli chorva mollaridan ham olib ketishgan [13]. Bu amalning "xon talau" deb atalgani bejiz emasligini tushunish mumkin. Xiva xonligidagi "xonbozi davri" [14]. da taxtga qozoq sultonlaridan "qo'g'irchoq xon"larning o'tkazilganligi e'tiborga olinsa, ushbu an'ananing Xiva xonligida ham qo'llangani haqiqatga to'g'ri keladi. Shu o'rinda, "xon ko'tarish" marosimining jonli manzarasini tasavvur qilish uchun uning asosiy atributlari hisoblangan kigiz va jig'a haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kigiz yoki namat deb ham atalgan jun mato asosan qo'y va tuyaning oq rangli junidan zich bosilib tayyorlangan. Kigiz oq, kulrang, qora va boshqa ranglarda bo'lib, unga turli naqshlar tushirilgan. Xorazmda kigizning ikki xili bo'lib, "takanamat", oddiyi "yo'na", deb nomlangan [15]. Xivadagi "xon ko'tarish" marosimida aynan poklik va ulug'vorlik ramzi sanalgan oq rangli "qashg'ar" yoki "qashg'archa" deb atalgan kigizdan foydalanilgan [16]. Jig'a [17]. qadimiy bezakli bosh kiyim (salla, do'ppi, toj) ustiga o'rnatiladigan taqinchoq sifatida to'y va tantanalarda, ba'zan "ko'z tegishdan" saqlanish niyatida foydalanilgan.

Shuningdek, hukmdor tojiga o'rnatilgan pat ham jig'a deb atalgan va manbalarda bu so'zning "o'tag'a", "ukpar" kabi shakllari qayd etilgan [18]. Jig'a tuzilishi jihatidan o'zaro jipslashgan ikki pallali yupqa kumushdan iborat bo'lib, yuqori qismida tovus, ukki patlari o'rnatish uchun naychasi bo'lgan hamda sirtiga bosma naqshlar ishlanib tilla suvi yugurtirilgan, shuningdek marvarid, feruza kabi qimmatbaho toshlar va rangdor shishalar qadab bezatilgan [19].

Manbalarda Xiva xoni Eltuzarxonning "Xorazm xonlari xazinasida saqlanayotgan va Sherg'ozixon Mashhaddan olg'an tojini" kiyib xon bo'lgan qayd etilar ekan, ushbu tojga feruza, mayda gavhar va olmos bilan bezak berilgan oltin jig'a qo'ndirilib, unga jig'aqushining 20-30 dona pati qadab qo'yilganligi tasvirlanadi [20]. "Shajarai Xorazmshohiy"da Sayyid

Asfandiyorxon (1910-1918) haqida ham “muborak boshlariga jig‘ali telfakni kiyib xon bo‘lib, ota taxtiga o‘ltirdilar” deyilgan [21].

Jig‘a bezagi xon minib yurgan qimmatbaho otining boshiga ham qadab qo‘yilganligi haqida ma‘lumotlar mavjud [8]. Xonlikda jig‘a qushining bosh qismi tasviri tushirilgan muhrdan foydalangani, uning bezakdan tashqari, o‘ziga xos ramziy ahamiyatidan ham dalolat beradi. “Firdavs-ul-iqbol” asarida keltirilgan “jig‘ali muhr” haqidagi ma‘lumot fikrimizni tasdiqlaydi [18]. Tadqiqotchi S.To‘rayevaning qayd etishicha, jig‘a qushi Qo‘ng‘irotlar sulolasining ramziy belgisi bo‘lgan va uning bosh qismi shaklida tushirilgan naqsh hukmdor toji, muhr, xon xonodoni vakillarining kiyim boshlari, otlarning egar-jabduqlari, ayrim-qurol aslahalarga ham o‘yib ishlangan [22].

XIX asrga oid Xiva davlat hujjatlarida jig‘aning bahosi va unga doir bo‘lgan qiziqarli ma‘lumotlar qayd etib o‘tilgan. Jumladan, xazinadan xon jig‘asiga 380 tilla, jig‘ali ot tuzuklari, qamchi qubbasiga 290 tilla sarflanganli va arkan bir jig‘a, ikki arabak, bir gajakni 4 tilloga tuzattirilganligi haqidagi ma‘lumot atributni to‘liqroq tasvirlashga ma‘lum ma‘noda yordam beradi [23]. Albatta, xonlik xazinasida saqlanadigan bunday afsonaviy, noyob va chiroyli bezakni saqlovchi mas‘ul shaxs tayinlanganligi tabiiy. Bu vazifa “jig‘ador” yoki “jig‘achi” zimmasiga yuklatilgan [24]. Ko‘rinib turibdiki, hatto bir qarashda oddiy ko‘ringan atributlar xon ko‘tarish marosimini o‘tkazishda alohida o‘rin tutgan va ulardan qoidasiga ko‘ra o‘z o‘rnida foydalanish talab etilgan.

Mazkur tarixiy voqelik manzarasiga Qo‘qon xonligi misolida yondashgan tarixchi B. Bobojonov o‘z tadqiqotida marosimining yakunida ya‘ni «erkin saylov» o‘yinidan so‘ng unda qatnashgan ulamo va aslzodalarga «qadimiy urf odatga ko‘ra» mo‘l sovg‘a inom etilganligini qayd etgan. Bu narsa diniy qonuniylashtirish va aslzodalarning rizoligini sotib olish yoki unga bosim ostida erishish mumkinligini ko‘rsatadi, deya qayd etgan [25]. Masalaga Buxoro xonligi misolida yondashgan Anke fon Kugel‘gen xon nomzodi kengashda ma‘qullanmagan hollarda bay‘at amali o‘tkazilmaganligini ta‘kidlaydi [26].

“Xon ko‘tarish” marosimining nihoyasida taxtga o‘tirgan yangi xon nomi jarchilar tomonidan baland ovozda xon xalqqa e‘lon qilinib, shahar ko‘chalarining barchasiga eshittirilib jar solingan. Bu e‘lon “xon ko‘tarish” jarayoniga mantiqiy yakun yasagan. Xususan, Muhammad Rahim to‘ra ibn Sayyid Muhammadxon (Bobojon to‘ra) taxtga o‘tirganda, “Davr-davri Muhammad Rahim Bahodirxon!” deya jar solingani manbalarda qayd etilgan [21].

Xulosa. Tahlil qilingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “xon ko‘tarish” marosimi uzoq ana‘analariga ega bo‘lib, tarixda markaziy hokimiyat legitimligini ta‘minlash va hukmdor mavqeyini mustahkamlashda katta rol o‘ynagan. Marosimni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish,

uning muhim jihatlarini ochib berish, tarixiy voqelikning yaxlit va jonli manzarasini hosil qilishga yordam beradi. Xivadagi o‘tkazilgan “Xon ko‘tarish” qadimiy marosimi muayan tartib qoidalar asosida olib borilgan bo‘lsada, xonlikning boshqa xonliklar bilan o‘zaro munosabatlarining xarakterini va so‘nggi o‘rta asrlar davrining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, manaviy omillari taqozasi bilan marosimlar o‘tkazilishi qoidalariga o‘zgartishlar kiritib borilgani kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 3 oktabrdagi PF-5843-sonli farmoni, [https:// lex.uz/docs/4549998](https://lex.uz/docs/4549998) (03.10.2019)
2. “Huquqiy odat” shaklida qayd etgan. Bu haqda qarang; Z.Muqimov. O‘zbekiston huquqining asosiy tarixiy manbalari (VIII–XIX asrlar) (tarixiy-huquqiy tadqiqot) Samarqand: 2008. – B. 59.
3. Толстов С.П. Древний Хорезм. МГУ. М: 1948. – С. 319; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 82-83.
4. Abdullanoma. 1 jild. – Toshkent: Fan, 1966. – B. 344;
5. Annanepesov M. Relations between the knahates and with other powers. History of civilizations of Central Azia. Volume V. Development in from the sixteenth to the mid-nineteenth century. Unesco Publishing, 2003. – P. 82.
6. Abulg‘oziy. Shajarayi turk. Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B. 118,150.
7. Савельев П.С. Путешествие Базинера через Киргизискую степь в Хиву. СПб. 1849. – С. 169; Веселовский Н.И.Очерки историко-географических свидений Хивинском ханстве. СПб. 1877. – С. 141, 329.
8. Rizoquli Hidoyat. Xorazm safari kundaliklari. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2010. – B. 189.
9. Рон Села. Ritual and authority in Cehtral Azia: The khans’ inauguration ceremony. Bloominton. Indiana. 2003. – P. 51.
10. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк Бухары. Дониш. – Душанбе: 1972. – С. 44-45.
11. Hofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullanoma. (Sharafnomayi shohiy) II kitob. – Toshkent: Sharq, 2000. – 136 b.
12. Султонов Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть. – Москва: Аст, 2006. – С. 85-86.

13. Толибеков С.Е. Кочевые общества казаков в XVII начале XX века. Алма-ата: 1971. – С. 353.
14. Абдурасулов У. От Арабшахидов к Кунградам: динамика и политический ландшафт Хорезма в период правлений двух династий. // Ozbekiston tarixi. 2013. № 2. - С. 21-22.
15. Abdurasulov A. Xiva. Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – В. 77-78.
16. Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатских этнографический сборник III. Ленинград: Наука, 1971. – Б. 115; Абдурасулов А. Хива. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 77-78.
17. Персидско-русский словарь / Под ред.Ю.А. Рубинчика. Т. I. Москва: 1970. – С. 439.
18. Munis va Ogahiy. Firdavs–ul-iqbol. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – В. 141.
19. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. Т. III Toshkent: 2002. - В. 616.
20. Safarov B. Xorazm xonliklaridagi urf-odatlar. Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. № 11117. 8-varaq.
21. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. – Toshkent. 1991. – В. 217.
22. To‘rayeva S. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning 70-yillaridagi Xiva xonligi hunarmandlik tarixi. Tarix fanlar nomzodi...diss. Toshkent. 2010. – В 88.
23. Yo‘ldoshev M.Y. tahriri. XIX asr Xiva davlat hujjatlari. Т. II – Toshkent: O‘z.akad nashr, 1960. – В. 290, 301
24. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М: 1873. – С. 63.
25. Бабажонов Б.М. Какандского ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент. 2010. – С. 251, 306, 386-387.
26. Анке фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. (XVIII–XIX вв.) Алматы: Дайк-пресс, 2004. – С. 265.
27. Allamuratov S. Vuxoro amirligining ichki savdo-tranzit aloqalarida Amudaryo suv yo‘lining o‘rni //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 9s. – С. 44-49.
28. Allamuratov S. Amudaryo suv yo ‘li bo ‘ylab mintqa davlatlarining savdo va tranzit aloqalari //»АСТА NUUZ». – 2025. – Т. 1. – №. 1.5. 1. – С. 8-11.
29. Allamuratov S. Amudaryo suv yo‘lining shakllanishiga doir ayrim mulohazalar //Tamaddun nuri jurnali Учредители: “Tafakkur-Tamaddun” LLC. – 2024. – Т. 11. – №. 62. – С. 84-86.